



## ANGLIYA-ROSSIYANING O'RTA OSIYOGA BO'LGAN QIZIQISHLARINING IQTISODIY OMILLARI

**Rasulova Dilshoda**

*Termiz Davlat Universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'rta Osiyoning Angliya va Rossiya davlatlari tomonidan bosib olinishining iqtisodiy-siyosiy sabablari tahliliy ravishda yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *O'rta Osiyo, Angliya, Rossiya, ingliz-rus raqobati, Buyuk o'yin, mustamlaka, Konolli, Nepomnin, S.M.Solovyov, V.V.Bartold, Pyotr I, B.Chekaviskiy.*

O'rta Osiyo hududi o'zining strategik qulay nuqtada joylashganligi bilan Angliya-Rossiya imperiyasida qiziqish uyg'otdi. O'zining rivojlangan sanoati va savdosi bilan Buyuk Britaniya imperiyasi dunyoning barcha hududlariga kirib bormoqda edi. Ayniqsa, bu hududda vudga kelgan Ingliz-Rus raqobati O'rta Osiyo hududida bu mamlakat elchilarini yanada faollashtirib yubordi. XVII – XVIII asrlarga kelib ingliz sanoati va savdosining butun dunyoga hukmron bo'lishga intilishi oqibatida iqtisodiy aloqalar mustamlakachilik xarakteri kasb etib, boylik orttirish, zo'ravonlikka aylana bordi. Bu holat ayrim davlatlar tomonidan O'rta Osiyo bozorlariga o'z mollarini taklif etish bilan birga uning tabiiy boyliklarini aniqlash ishlarini jadallashtirishga undadi. Rossiya va Angliyaning O'rta Osiyodagi iqtisodiy tashqi siyosati ayni shu maqsadlarga qaratilgan edi. XIX asrning Markaziy Osiyo mintaqasida tarixchilar Britaniya va Rossiya maqsadlari haqida turli fikrlarga ega. Bu fikrlar turli xil shaxslarga xos bo'lgan xulosalar, shuningdek, asosiy manbalar materiallariga kirishning turli xilligi bilan bog'liq.<sup>5</sup> Buyuk O'yin o'zini strategik ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab mintaqalarni taqdim etdi. Turkiston Buyuk Britaniya va Rossiya uchun katta harbiy ahamiyatga ega edi. Buyuk Britaniya Rossiyani Markaziy Osiyoda mustahkam o'rnashishga to'sqinlik qiladi. Agar Rossiyaning chegara qo'shinlari qarshilik ko'rsatishda davom etsa, u doimo zaiflashishi mumkin. Shuning uchun Angliya Buxoro, Xiva va Qo'qonga josus vs agentlarini yubordi.<sup>6</sup> XIX asrning 30-yillari Angliya tarixida kapitalistik munosabatlarning rivojlana borishi va mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Angliya savdosi rivojlanishi bilan u Osiyoga ikki tomondan, ya'ni Hindiston va Qora dengiz orqali kirib kela boshladi.<sup>7</sup> Ingliz manbalarida keltirilgan dalillarga qaraganda XIX asrning 30-yillari boshlaridayoq O'rta Osiyo bozorlarida ingliz mollarining narxi rus mollariga nisbatan anchagina oshgan edi. A. Konollining so'ziga ko'ra, rus mollari arzon bo'lishiga qaramasdan, ingliz mollari Buxoro bozorida afzalroq ko'rilar edi.

<sup>5</sup> Madeline Lazer. Why They Played: The British and Russian Motivations for Expansion in Nineteenth-Century Central Asia. Senior Honors Thesis, George Washington University. 2005. – P 17.

<sup>6</sup> John L. Evans, "Introduction," in Mission of N. P. Ignat'ev to Khiva and Bukhara, 1858 by Nikolai Pavlovich Ignat'ev (Newtonville, MA: Oriental Research Partners, 1984): – P 5. 16 XIX asrning 30 – 40-yillarida Buxoro xonligi bilan Ross

<sup>7</sup> Мухаммаджанов Р. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.:Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси,1957. – Б. 62



Uning fikricha, agarda keyinchalik ingliz mollarining narxi rus mollarining narxigacha kamaysa, ular ruslarni O`rta Osiyo bozorlaridan siqib chiqarishlari mumkin<sup>8</sup> A. Konollining bu fikrlari butunlay asossiz bo`lib, Rossiyani inglizlar O`rta Osiyo bozorlaridan siqib chiqarishlari mutlaqo mumkin emas edi. Chunki, birinchidan, Angliya O`rta Osiyo bozorlarida faqat ip gazlamalar savdosida Rossiyaga raqib bo`lib, qolgan savdo butunlay Rossiyaning qo`lida edi, ikkinchidan, anglichanlar o`z mahsulotlarini naqd oltinga sotib, O`rta Osiyo mollarini sotib olmas edilar. Rossiya bo`lsa, o`z mollarini sotish bilan barobar, O`rta Osiyoning mahalliy mahsulotlari xaridori ham edi. Shularga asosan, inglizlarning O`rta Osiyoga qilgan iqtisodiy hujumlarining muvaffaqiyatsiz chiqishi muqarrar edi<sup>9</sup>

Angliyaning asosiy maqsadi xonliklarni bosib olishga chog`lanayotgan Rossiyaning rejalarini barbod qilish, uchala xonlikni unga qarshi bir kuch qilib birlashtirish va O`rta Osiyo bozorini egallash edi. XIX asrning 20-yillarida O`rta Osiyoga yuborilgan ingliz missiyalari, asosan, Angliya burjuaziyasi tomonidan yuborilib, 30-yillarga kelganda bu ishga Britaniya hukumatining o`zi bevosita rahbarlik qila boshlaydi. Bu voqea inglizlarning agressiv rejalarini amalga oshirish uchun O`rta Osiyoga qat`iy suratda kirib kelishidan darak berar edi. Buning asosiy sababi 1825-yilda Angliyada boshlangan inqiroz bo`lib, u butun Angliya sanoatining deyarlik ko`pgina qismini o`z ichiga olgan edi. Oqibatda mamlakatning butun iqtisodi katta zarar ko`rgan edi. Bu og`ir ahvoldan qutilish uchun ingliz hukumati XIX asrning 30-yillarida butun O`rta Sharq hamda O`rta Osiyo bo`ylab keng savdo va diplomatik yurish qilishga boshlaydi. XIX asr o`rtalarida Angliya Rossiya davlatlarining mustamlakachilikdagi manfaatlari O`rta Osiyoda to`qnashadi. "Rossiyaning O`rta Osiyoga bosqinchilik sababi – Qrim urushidagi urushidagi mag`lubiyat o`rnini to`ldirishga intilish, Yaqin va Sharqdagi ingliz-rus muxolifati va strategik ahamiyatga molik mushoxadalar sabab bo`lgan".

V.Ya.Nepomnin ta`kidlashicha O`rta Osiyoning nisbatan tez istilo etilishi sababini, bu yerdagi davlatlarning iqtisodiy siyosiy jihatdan qoloqligi, aholining ko`pi passiv kuzatuvchi bo`lib, qolganligi, mahalliy savdogarlarning ochiqchasiga va yashirin qo`llab-quvvatlashi va xarbiy ishning nihoyatda ibtidoiy holatda qolib ketganligi bilan izoxlaydi. Angliya rus an`anaviy mollarining eng yirik istemolchilaridan biri hisoblanardi. O`rta Osiyo esa Rossiyani Angliyani o`z ittifoqchilariga aylantirishga majbur qilish uchun zarur bo`lib qolgandi. A.Hidoyatov Rossiyaning O`rta Osiyoni bosib olish vaqtiga qarab o`zgarganini ko`rsatadi. 60-80-yillarda siyosiy manfaatlar iqtisodiy qiziqishdan ustun bo`lsa, 90-yillarda iqtisodiy manfaatlar birinchi o`ringa chiqadi.

S.M.Solovyovning ta`kidlashicha Chor Rossiyasi bu davrda katta mablag`ga muhtoj bo`lgan. Shu sababli Pyotr I O`rta Osiyoning taabiy boyliklariga ko`z olaytirgani haqida

<sup>8</sup> A.Conoly. *Journet to the North of India overland from England through Russia, Persia and Afghanistan*. London, 1838. – P 232-233.

<sup>9</sup> Мухаммаджанов Р. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.:Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси,1957. – Б. 63



ma'lumotlar keltirilgan.<sup>10</sup> V.V.Bartold o'zining Sharq tarixini o'rganishga bag'ishlagan ilmiy ishlarida Rossiya va O'rta Osiyo aloqalarida asosiy e'tibor Rossiyaning Kaspiy dengizidan sharqqa joylashgan mamlakatlarga siyosiy va iqtisodiy jihatdan e'tibor qaratishi XVII-XVIII asrlarga to'g'ri keladi.<sup>11</sup> V.Dubovitskiy o'zining ilmiy izlanishida Rossiya va O'rta Osiyo o'rtasidagi munosabatlarning birinchi bosqichi VIII-IX asrlarda boshlangan bo'lib, XVII asrgacha davom etgan. Ikkinchi davri Pyotr I davriga to'g'ri kelib, uning maqsadi Hindistonga olib boruvchi yo'l deb qaraganligini ta'kidlaydi.<sup>12</sup> X.Z.Ziyoyev tadqiqotlarini XVI-XIX asrlarda O'rta va Sibir iqtisodiy aloqalariga bag'ishlagan bo'lib, XVII asrning ikkinchi yarmida Rossiya savdo aloqalarida Sibirning janubiy tarmog'i Rossiyaning Yevropa qismidagi savdo aloqalariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etgan.<sup>13</sup>

Rossiya va O'rta Osiyo savdo va diplomatik aloqalari ikki yo'l orqali olib borilgan. Birinchisi "Janubiy-Sharqiy savdo yo'li" va "Sibir savdo yo'li"dir. A.Chuloshnikovning ta'kidlashicha, XVI-XVII asrlarda Sharqiy Kaspiy dengizi qirg'og'ida ikkita pristan Kabakli va Qoragan pristanlari bo'lgan. Bu ikki pristan O'rta Osiyo va Maskva davlatlari o'rtasidagi savdo yo'li dengiz va quruqlik yo'lga ajratilgan.

Rus davlati ayni vaqtda O'rta Osiyodagi tabiiy boyliklardan foydalanishga harakat qilgan. Bunga Rossiyaning chet mamlakatlar bilan tinimsiz urush olib borishi harajatning ko'payishiga sabab bo'lgan. Pyotr I senatda "Pulni imkon boricha ko'p yig'ish kerak, hozir pul urushning qon tomiridir" – deb ko'rsatma bergan. Davlat xarajatlarini oltin va kumush konlarini qidirib topish bilan qoplash maqsadida O'rta Osiyoga maxsus ekspeditsiyalar tashkil etadi. Pyotr I buyrug'I bilan 1715-yilda polkovnik Ivan Buxgolts, 1717-yilda Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi O'rta Osiyoga yuboriladi. Ammo ikki ekspeditsiya muvaffaqiyatsiz yakun topadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Sharq, shuningdek O'rta Osiyo savdo mollariga 5% bojxona solig'i joriy qilingan. Keyinchalik bu to'lov 10% gacha ko'tarilgan. Rus imperatori tomonidan 1807-yil 1-yanvarda qabul qilingan "Podsho manifesti" ga ko'ra O'rta Osiyolik savdogarlarning yevropalik savdogarlar bilan savdo qilishi taqiqlangan.

XIX asr boshida Rossiya gazmol to'qish sanoatining rivojlana borishi mamlakatda ip yigiruv manufakturalari qurish va uni ko'paytirish vazifasini qo'ydi. Shu tariqa Rossiyada ip yigiruv manufakturalari paydo bo'la boshladi. Shu vaqtdan e'tiboran Rossiya hukumati O'rta Osiyodan tayyor paxta ipi bilan bir qatorda ko'proq paxta xom-ashyosini olishga intildi. XIX asrning dastlabki yillaridan boshlab rus hukumati O'rta Osiyodan Rossiyaga keltirilayotgan paxta miqdori va uni yanada ko'paytirish yo'llari haqida ma'lumotlar to'plashga kirishdi.

XIX asrda o'sib borayotgan Rossiya to'qimachilik sanoati rus hukumati oldiga Rossiyaga xom-ashyo-paxta va yigirilgan ip chiqariladigan o'lkalardan biri bo'lgan O'rta Osiyo bilan o'z iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish va mustahkamlash

<sup>10</sup> Соловьёв С М СочиненияМ, 1993

<sup>11</sup> Бартольд В В Сочинения М, 1977 Т.9.

<sup>12</sup> Дубовицкий В Русские в Средней Азии // Москва 1991

<sup>13</sup> Зияев З Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI – XIX вв Ташкент, 1983.



vazifasini qo'yadi. 1802- yil aprelida Rossiyaning O'rta Osiyo bilan iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish masalasi Rossiya podsholigi hukumati Davlat Kengashida muhokama qilinadi. Davlat Kengashida Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalari Yevropa davlatlarini, xususan Angliyani boyitishda muhim vosita bo'lganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, Kengashda Rossiya va O'rta Osiyoni bog'lovchi uchta asosiy karvon yo'li: 1. Mang'ishloq, 2. Orenburg, 3. Sibir yo'llari mavjud ekanligi ta'kidlanadi. Shunday qilib, Rossiya-O'rta Osiyo savdosini olib borish bo'yicha "Qoida" ishlab chiqilgan. Ushbu "Qoida"ga muvofiq o'rta osiyolik savdogarlarga hech nimani pulga sotmaslik, balki o'zaro kelishuvga ko'ra rus mollariga almashtirish zarurligi uqtilgan.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyoda ikki mustamlakachi davlatlar - Angliya va Rossiya o'z manfaatlari yo'lida kurash olib bordilar. Bu kurash tarixchilar tomonidan XIX asrda "Buyuk o'yin" nomi bilan kirdi. O'rta osiyoda mavjud xonliklarning iqtisodiy-siyosiy tanazzulga yuz tutishi ularning buyuk davlatlar o'rtasida kurash maydoniga aylanishiga sabab bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madeline Lazer. Why They Played: The British and Russian Motivations for Expansion in Nineteenth-Century Central Asia. Senior Honors Thesis, George Washington University. 2005. – P 17.
2. John L. Evans, "Introduction," in Mission of N. P. Ignat'ev to Khiva and Bukhara, 1858 by Nikolai Pavlovich Ignat'ev (Newtonville, MA: Oriental Research Partners, 1984): – P 5. 16 XIX asrning 30 – 40-yillarida Buxoro xonligi bilan Ross
3. Мухаммаджанов Р. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.:Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси,1957. – Б. 62
4. A.Conoly. Journet to the North of India overland from England through Russia, Persia and Afghanistan. London, 1838. – P 232-233.
5. Мухаммаджанов Р. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.:Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси,1957. – Б. 63
6. Соловьёв С М СочиненияМ, 1993
7. Бартольд В ВСочинения М, 1977 Т.9.
8. Дубовицкий В Русские в Средней Азии // Москва 1991
9. Зияев Z Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI – XIX вв Ташкент, 1983.